ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-8

OVQAT HAZM QILISH MARKAZI: MEDA ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI.

Rustamova Mohinur Rahimovna
Alfraganus University Tibbiyot fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar:
Mansurova Dilorom Arslonovna
Alfraganus University Tibbiyot kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola hazm qilish sistemasining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan medaning anatomik va fiziologik xususiyatlarini keng yoritadi. Bugungi kunda noto'g'ri ovqatlanish, stress va zararli odatlar tufayli oshqozon kasalliklari keng tarqalmoqda. Ayniqsa, gastrit, yara va boshqa patologiyalar soni ortib borayotgani tufayli medaning morfologiyasi va fiziologiyasini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Maqolada ovqat hazm qilish sistemasining asosiy qismlaridan biri bo'lgan medaning qavatlari, bezlari va ularning hujayralari batafsil yoritilgan. Shuningdek, meda sekretsiyasi va har birining vazifalari izchil bayon qilingan. Ushbu maqola tibbiyot, biologiya, anatomiya va fiziologiya sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar hamda talabalar uchun foydali nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.
Kalit so'zlar: Me'da anatomyasi, me'da fiziologiyasi, me'da qismlari, ovqat hazm qilish sistemasi, me'da sekretsiyasi, me'da qavatlari, me'da hujayralari, me'daning xususiy bezlari, oshqozon shirasining PH muhiti, me'da shirasining tarkibi.

Аннотация. В данной статье подробно освещаются анатомические и физиологические особенности желудка, являющегося основным компонентом пищеварительной системы. В настоящее время из-за неправильного питания, стресса и вредных привычек заболевания желудка широко распространены. Особенно увеличивается количество таких патологий, как гастрит, язва и другие. В связи с этим изучение морфологии и физиологии желудка приобретает актуальное значение. В статье подробно рассматриваются слои желудка, его железы и клетки, а также процессы желудочной секреции и функции каждого компонента. Данная статья представляет собой полезный теоретический и практический источник для специалистов и студентов, работающих в области медицины, биологии, анатомии и физиологии.
Ключевые слова: Анатомия желудка, физиология желудка, отделы желудка, пищеварительная система, желудочная секреция, слои желудка, клетки желудка, собственные железы желудка, pH среды желудочного сока, состав желудочного сока.

Annotation. This article provides a comprehensive overview of the anatomical and physiological characteristics of the stomach, a key component of the digestive system. Today, due to poor nutrition, stress, and harmful habits, stomach diseases have become widespread. In particular, the number of such pathologies as gastritis, ulcers, and others is increasing. Therefore, studying the morphology and physiology of the stomach has become highly relevant. The article thoroughly examines the layers of the stomach, its glands, and cells, as well as the process of gastric secretion and the functions of each component. This article serves as a valuable theoretical and practical resource for professionals and students in the fields of medicine, biology, anatomy, and physiology.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Keywords: Stomach anatomy, stomach physiology, stomach parts, digestive system, gastric secretion, stomach layers, stomach cells, gastric glands, pH environment of gastric juice, composition of gastric juice.

Kirish. Ovqat hazm qilish tizimi inson organizmidagi eng muhim hayotiy tizimlardan biridir. Ushbu tizim orqali ozuqa moddalarining parchalanishi, so‘rilishi va tanaga tarqalishi ta’minlanadi. Ovqat hazm qilish markazlaridan biri sifatida me’da alohida o‘rin tutadi.Me’da nafaqat mexanik, balki kimyoviy hazm jarayonlarining boshlanish joyi hisoblanadi. Uning anatomik tuzilishi va fiziologik faoliyati organizmning umumiy sog‘lig‘i uchun katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada me’daning tuzilishi, qismlari, devor qatlamlari hamda unda kechadigan asosiy fiziologik jarayonlar haqida batafsil to‘xtalinadi.

Hazm tizimi ikki uchi ochiq nay bo'lib o'g'iz bo'shlig'idan kirib to'g'ri ichakdan chiqib ketgunga qadar ko'plab fermentlar ta'siriga uchraydi, parchalanadi, so'riladi. Qoldiq mahsulotlardan axlat massasi shakllanadi. Meda – ventriculus seu gaster qorin bo‘shlig‘ining yuqori qavatidagi a'zo bo‘lib, ko‘p qismi chap sohada joylashadi. Me’daning oldingi devori - paries anterior va orqa devori - paries posterior deyiladi. Me’daning qizilo'ngach bilan tutashish sohasi pars cardiaca deyilib, qizilongachning me’daga o‘tish teshigi ostium cardiacum deyiladi. Me’daning o‘n ikki barmoqli ichakka o‘tish sohasi pars pylorica, shu sohadagi teshik esa ostium pyloricum deyiladi. Me’daning chap tarafga yo‘nalgan, gumbaz shaklidagi qismi, me’daning tubi fundus yoki gumbazi fornix deyiladi. Me’daning gumbaz qismidan uning chiqish sohasigacha bolgan qismi me’daning tanasi corpus ventriculi deyiladi. Me’da pars pylorica qismining tanaga yaqin sohasi kengayib, antrum pvloricum va o‘n ikki barmoqli ichakka davom etadigan qismi canalis pyloricus deyiladi. Shunday qilib, hazm traktining eng kengaygan qismi me’da yuqoridan kardial, pastdan pilorik sfinkter bilan tutashgan. Yuqoridagi sfinkter qizilo'ngachdan ovqat o'tkazish va qayta qizilo'ngachga bormasligini taminlaydi. Me’da 1.5-2 l bo'lib ovqat tasirida 3-4 l gacha kengayishi mumkin.

* Antrum(g'or), pilorik(darvoza) degan ma'nolarni anglatadi.

Me’da devori qavatlari:

1.Shilliq qavat (tunica mucosa)
2.Shilliq osti qavat (tela submucosa)
3.Mushak qavat (tunica muscularis)
4.Tashqi qavat (tunica serosa)

Medaning shilliq qavatlarida 3 xil bezlar farqlanadi.

1. Kardial bezlar.
2. Fundal bezlar (medaning xususiy bezlari).
3. Pilorik bezlar.

Shilliq qavatdagi bezlar quyidagi hujayralardan tuzilgan.

1. Bosh hujayralar - pepsinogen ishlab chiqaradi.
2. Parietal hujayralar - HCl ishlab chiqaradi.
3. Mukoz hujayralar - shilliq ishlab chiqaradi.

Medaning kardial va pilorik qismida mukoz hujayralar bo'ladi. Ular faqat shilliq ishlaydi. Fundal qismda uchchala bezlar bo'lib ular pepsinogen, HCl, shilliq ishlab chiqaradi.

Katta odamda 1 sutkada 2-2.5 l meda shirasi (saccus gastricus) ajraladi. U tiniq, rangsiz suyuqlik bo'lib kislotali muhitga ega. PH 1-2. Uning tarkibi: 99% suv(H_2O) va 1% quruq modda. Quruq modda(fermentlar, shilliq, HCl, ichki faktor elektrolitlardan iborat.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-8

Meda sekretsiya:

1. HCl sekretsiyasi
2. Pepsinogen sekretsiyasi
3. Shilliq modda sekretsiyasi

HCl vazifalari:

1. Oqsillarni denaturatsiga uchratib parchalashga yordam beradi.
2. Pepsinogenni aktivlaydi.
3. Bakteriyalarning ko'payishiga to'sqinlik qiladi.
4. Meda shirasi tarkibidagi fermentlarning ta'siri uchun optimal PH ni tamillaydi.

Pepsinogen sekretsiyasi. Pepsinogen bu - pepsin fermentining noaktiv shakli bo'lib bosh hujayralar tomonidan sekretsiya qilinadi. Pepsinogen hujayra ichidagi granulalarda zaxiralanadi. Meda bo'shlig'iga chiqqan HCl va avval hosil bo'lgan pepsin ta'sirida aktivlanadi ya'ni pepsin fermentiga aylanadi. Pepsin ta'sirida oqsillar polipepdidlargacha parchalanadi keyin o'n ikki barmoqli ichakda aminokislotalargacha parchalanadi.

Shilliq sekretsiyasi. Shilliq sekretsiyasi butun meda devorini qoplagan yuza hujayralar va kardial, pilorik bezlarning mukoz hujayralari tomonidan amalga oshadi.

Shilliq tarkibida: Glikoproteinlar (mutsin); Gidrokarbanat anioni (HCO3); Suv H20 bo'ladi.

Glikoprotein--shilliqni yopishqoqligini va quyuqligini ta'minlaydi.

Bikarbanat anioni--oshqozondagi kislotali muhitdan devorini himoya qiladi.

Demak oshqozondan ajralgan shilliq modda oshqozon devorini fermentlar va HCl dan himoya qiladi. Shilliq sekretsiyasi oshqozondagi barcha shilliq qavat hujayralaridan ajralib chiqadi.

Xulosa. Me'da inson organizmida ovqat hazm qilish tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida murakkab tuzilishga va muhim fiziologik funksiyalarga ega. Ushbu maqolada medaning anatomik tuzilishi, uning shilliq qavati va bezlarining xususiyatlari, shuningdek, ovqat hazm qilishdagi roli ilmiy manbalar asosida chuqur tahlil qilindi. Mavjud ilmiy ma’lumotlar asosida medaning normal faoliyati o‘rganildi. Me'daning sog‘lom ishlashi butun ovqat hazm qilish tizimining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan me'da faoliyatini chuqur o‘rganish, unga oid kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash usullarini ishlab chiqish zamonaviy tibbiyotning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Liders S.F. Anatomiya cheloveka. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2010.
2. Bahadirov B.M. Odam anatomiyasi. — Toshkent: Fan, 2005.
3. Qodirov H., Rahimov B., Jabborov M. Inson anatomiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
4. Inson anatomiyasi – X. Q. Jo‘rayev, Sh. A. Axmedov
5.Topografik anatomiya – Jo‘rayev H.Q.
6.Ilmiy maqolalar va internet manbalari: www.medicalnewstoday.com, www.ncbi.nlm.nih.gov, www.webmd.com